

## YUKLAMALAR AKTUALLASHUVI

*Olimova (Sobirova) Bahoroy Orifjon qizi*  
*ADU Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi*  
*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Yuklama, asosan, gap shaklida bir butun holda, ba'zan biror sintaktik bo'lakka qo'shilib, so'roq, ta'kid, taajjub kabi grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Ayrim yuklamalar tashqi ko'rinishi jihatidan leksemaga o'xshaydi, shunga ko'ra leksema ko'rinishli yuklamalar deyiladi va leksemashakldan ayrim yoziladi.

**Kalit so'zlar:** yuklama, gap, leksika, grammatika, ma'no, so'z turkumlari, aktuallashuv, mustaqil so'zlar, gap bo'laklari.

**Аннотация:** нагрузка выражает грамматические значения, такие как вопрос, ударение, удивление, в основном в форме предложения в целом, иногда в сочетании с синтаксическим фрагментом. Некоторые загрузки похожи по внешнему виду на лексемы, поэтому лексемы называются видимыми загрузками, а некоторые пишутся с лексемной формы.

**Ключевые слова:** загрузка, предложение, лексика, грамматика, значение, категории слов, актуализация, независимые слова, фрагменты предложений.

**Annotation:** the loadout expresses grammatical meanings, such as interrogative, tacit, surprise, in a whole case, mainly in the form of a sentence, sometimes added to some syntactic fragment. Certain loadings are similar in appearance to the lexeme, so the lexeme is called visual loadings, and some are written from the lexeme.

**Keywords:** load, sentence, lexicon, grammar, meaning, word categories, actualization, independent words, sentence fragments.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zaro leksik-grammatik, funksional xususiyatlariga ko'ra farqlanuvchi quyidagi so'z turkumlari bor: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish – mustaqil so'zlar; ko'makchi, bog'lovchi, yuklama – yordamchi so'zlar; undovlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar – alohida olingan so'zlar hisoblanadi.

Yuklama, asosan, gap shaklida bir butun holda, ba'zan biror sintaktik bo'lakka qo'shilib, so'roq, ta'kid, taajjub kabi grammatik ma'nolarni ifodalaydi.

Yuklamalarning bir qismi ko'rinishi jihatidan affiksga o'xshaydi, shunga ko'ra affiks ko'rinishli yuklamalar deyiladi; bunday yuklamalardan *mi*, *gina* (*kina*, *qina*), *-oq/yoq*, *ov/yov* yuklamalari leksemashaklga qo'shib yoziladi; *chi*, *ku*, *da*, *e*, *a/ya*, *u/yu*, *ey/yey* yuklamalari esa chiziqcha bilan (yarim qo'shib) yoziladi. Yuklama leksemashakl tarkibiga kirmaydi, leksemashaklga qo'shiladi; shuni hisobga olib yuqorida sanalgan barcha yuklamalarni chiziqcha bilan yozish to'g'ri; faqat *mi* (shuningdek *dir* gumon yuklamasi) leksemashakl tarkibida tuslovchidan oldin kelsa,

qo'shib yozish shart bo'ladi: *kelgan edingmi*, lekin *kelganmiding*; *kelgandir*, lekin *kelgandirman* kabi.

Ayrim yuklamalar tashqi ko'rinishi jihatidan leksemaga o'xshaydi, shunga ko'ra leksema ko'rinishli yuklamalar deyiladi va leksemashakldan ayrim yoziladi; *axir*, *faqat*, *nahot[ki]*, *hatto[ki]*, *xuddi*, *ham*, *esa*.

Yuklamalar odatda quyidagi ma'no turlariga ajratiladi:

- 1) kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari;
- 2) so'roq va taajjub yuklamalari;
- 3) ayiruv va chegaralov yuklamalari;
- 4) aniqlov yuklamasi;
- 5) gumon yuklamasi.

Ayni bir yuklama qanday leksemashaklga qo'shib kelishiga, qanday ohang bilan aytilishiga qarab yuqoridagi boshqaboshqa bandlarda ta'kidlangan ma'nolarni ifodalashi mumkin. Shuni hisobga olib yuklamalarni birmabir keltirib, ular bilan ifodalanadigan ma'nolarni ta'kidlashni ma'qul topdik:

1. *mi* yuklamasi:

- a) *so'roq* ma'nosini ifodalaydi: *Xolposh daladami?* (O'tkir Hoshimov) kabi;
- b) 'noaniqlik' ma'nosini ifodalaydi, bunda takroran ishlatiladi: *Shu haftaning oxiridami, narigi haftaning boshidami .. ziyofat qilamizu,..* (Odil Yoqubov) kabi.

2. *a/ya* yuklamasi:

- a) *so'roq* ma'nosini ifodalaydi: *Qotil kim bo'ldi ekana?* (Hamid G'ulom) kabi;
- b) taajjub ma'nosini ifodalaydi: *Bolaga o'xshaydiya!* (Oybek) kabi.

3. *chi* yuklamasi: *so'roq* ma'nosini ifodalaydi: *Xotiningchi? U ham hech narsa demadimi?* (O'tkir Hoshimov) kabi ;

4. *nahot[ki]* yuklamasi '*so'roq* bilan taajjub' ma'nosini ifodalab, odatda kesimi *sa* affiksi bilan shakllangan gaplarda ishlatiladi: *N a h o t Otaqo'zi .. boshiga ko'tarib yurgan Jamol Bo'riboev shu odam bo'lsa?!* (Odil Yoqubov)

5. *ham* yuklamasi ta'kid ma'nosini ifodalab: *Orqa aravadagilar h a m yerga tushib, olomon tomon kela boshladilar* (Hamid G'ulom) kabi;

6. *esa* yuklamasi ta'kid ma'nosini 'eslatish' ma'no qirradi bilan birgalikda ifodalaydi, odatda egaga qo'shiladi: *Tussiz tagdo'zi do'ppi qo'ndirilgan boshi e s a qori chala erigan cho'qqini eslatar edi* (Hamid G'ulom) kabi.

7. *hatto* yuklamasi ta'kid ma'nosini kuchli darajada ifodalaydi: *Keyinkeyin Salimxon uning fikriga tushuna boshladi, h a t t o ba'zi bir masalalarda u bilan bahslashadigan bo'ldi* (Abdulla Qahhor) kabi;

8. *ku* yuklamasi ta'kid ma'nosini 'hissiyot' ma'no qirradi bilan birgalikda ifodalaydi: *Bu ishning har bir varag'idan shaxsiy g'araz hidi keladiku!* (Abdulla Qahhor) kabi;

9. *da* yuklamasi ta'kid ma'nosini 'pisanda' ma'no qirrasini bilan birgalikda ifodalaydi: *Yuboraveringda, shu yerda o'libnetib qolsa,..* (Abdulla Qahhor) kabi.

10. *xuddi* yuklamasi ta'kidlab o'xshatish ma'nosini ifodalaydi:.. *x u d d i namgarchilik kuz kechasini boshlab kirgan edi dahlizga* (Asqad Muxtor) kabi;

11. *faqat* yuklamasi 'chegaralab ta'kidlash' ma'nosini ifodalaydi: *F a q a t .. ishga sho'ng'ib ketganda-gina bu o'ylar sal yodidan ko'tarilib,..* (Odil Yoqubov) kabi.

12. *gina* yuklamasi 'faqat' ma'nosini ta'kidlab ifodalaydi: *Shunda-gina Farida boshini ko'tardida, .. auditoriyaga bir daqiqa qiziqsinib qarab qo'ydi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

13. *u/yu* yuklamasi: *Ichkaridan yalangbosh, yalangoyoq Oliy yugurib chiqdi, chiqdiyu, eriga otildi* (Odil Yoqubov) kabi;

2) ta'kidlab sanash' ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: *Hammani to'ydirish g'amida yuradiyu, o'zi to'yib non yemaydi* (Hamid G'ulom) kabi.

14. *da* yuklamasi:.. *E'zozxon Uchqunni Tozagulning qo'lidan oldida, o'tirib emiza boshladi* (Hamid G'ulom) kabi;

15. *oq/yoq* yuklamasi: *Ochil buva odati bo'yicha ko'chaning boshidayoq mashinadan tushib, piyoda yurdi* (Asqad Muxtor) kabi;

16. *dir* yuklamasi 'taxmin' ma'nosini ifodalaydi: *Men bu kitobni o'qimagandirman* kabi.

17. *na... na..* yuklamasi ta'kidli inkor' ma'nosini ifodalaydi: *Qoni miyasiga urib darg'azab bo'lib ketganidan na ko'zini uqalash, na ust-boshini qoqish xayoliga kelar, atrofga alanglar edi* (Asqad Muxtor) kabi.

So'z tartibi va intonatsiya gapning actual bo'linishi bilan shug'ullangan tadqiqotchilarning hammasi tomonidan aktuallashtiruvchi vositalar sifatida tan olinadi. Bunga qo'shimcha ravishda ayrim tadqiqotchilar yuklamalarning (Panfilov, Toropova, Abdullayeva va boshq.), inkor bildiruvchi affikslarning (Panfilov), redulikatsiyaning (Shevyakova, Abdullayev) aktuallashtiruvchilik vazifasini ko'rsatadi.

Gap bo'laklarining meyoriy tartibi va intonatsion tuzilishining bosh paradigmatic a'zoga nisbatan o'zgarishi hamda bu jumlaning sintagmatik tobe jumlagacha aylanishi uning aktuallashtiruvchidir.<sup>1</sup> Aktuallashtiruvchi jumlagacha vaziyat shart-sharoiti talabi bilan shu jumla orqali orqali ifodalanadigan mazmunning kommunikativ niyatiga muvofiq keladigan shakl beradi.

Sintagmatik mustaqil jumlaning sintagmatik tobe jumlagacha aylantirish uchun xizmat qiladigan lisoniy vositalar aktuallashtiruvchi vositalardir.<sup>2</sup>

Gap bo'laklarining aktuallashtiruvchilik vazifasini ko'rsatadi. Bu kabi aktuallashtiruvchi vositalarga mantiqiy urg'u, u bilan

<sup>1</sup> Nurmonov.A. Tanlangan asarlar III jildlik, I jild. 290b.

<sup>2</sup> O'sha asar.

bog'liq nutq tempi va pauza kiradi.

Grammatik vositalar ham xizmat qiladi. Shu kabi vositalar mantiqiy urg'uli bo'lak bilan birga kelib, mantiqiy yordamchi aktuallashtiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Bularga **ham, faqat, yolg'iz, hatto, o'zi** so'zlari kiradi, shuningdek – **gina, -oq(-yoq)** yuklamalari hamyordamchi aktuallashtiruvchi vosita hisoblanadi. Ko'rsatilgan aktuallashtiruvchi vositalardan **faqat, yolg'iz, birgina** ajratib ko'rsatish; **ham, hatto, o'zi, -oq(-yoq)** vositalari esa ta'kidlab ajratish funksiyalarini bajaradi.

**Hatto** Karim keldi.

Karim **ham** keldi.

**Faqat** Karim keldi.

**Yolg'iz** karim keldi.

**Birgina** Karim keldi.

Karimning **o'zi** keldi.

Karimning **o'ziyoq** keldi va boshq.

Yuqoridagi leksik va Grammatik vositalar bilan birga kelgan bo'lak mantiqiy urg'u oladi va aktual ahamiyatli bo'lak – rema hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmonov.A. Tanlangan asarlar III jildik.
2. Jamolxonov.H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent.: Talqin nashriyoti. 2005. – 260b.
3. Rahmatullayev.SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2006